

## O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMI ISLOHOTLARI ( ISTIQBOLLI O’ZGARISHLAR SARI )

Usmonova Dilorom Muydinovna

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida so’nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo’nalishlari, maqsad va vazifalari tahlil etiladi. Ta’lim sifatini oshirish, o’quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o’qituvchilarning malakasini oshirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xalqaro standartlarga moslashish va ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish kabi islohotlarning ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so’zi:** Ta’lim tizimi, Islohotlar, Ta’lim sifati, Zamonaviy texnologiyalar, O’qituvchilarning malakasi, Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, Xalqaro standartlar, Ta’limni boshqarish, Oliy ta’lim, Maktabgacha ta’lim, Maktab ta’limi.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so’ng ta’lim sohasida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Maqsad - mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan, global raqobatga bardosh bera oladigan, yuqori malakali va zamonaviy bilimga ega kadrlarni tayyorlashdan iborat. So’nggi yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta’lim tizimini yangi bosqichga ko’tarish, ta’lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo’nalishlari:

Maktabgacha ta’limni rivojlantirish: Bolalarni maktabga tayyorlash sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarining sonini ko’paytirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. O’quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirish, o’qitish metodikasini yangilash, o’quvchilarda mustaqil fikrlesh, ijodiy yondashuv va amaliy ko’nikmalarni shakllantirish.

Oliy ta’lim muassasalarining avtonomiyasini oshirish, ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini oshirish.

- O’qituvchilarning malakasini oshirish: O’qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish, moddiy va ma’naviy rag’batlantirish tizimini takomillashtirish. Yangi ta’lim muassasalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va zamonaviy o’quv uskunalar bilan jihozlash.

. Islohotlarning asosiy maqsad va vazifalari:

- Ta’lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish O’quvchilarda mustaqil fikrlesh, ijodiy yondashuv va amaliy ko’nikmalarni rivojlantirish.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun zarur bo’lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Mehnat bozorining talablariga javob beradigan, zamonaviy bilimga ega mutaxassislarini yetishtirish.

Ta’lim tizimini boshqarishda shaffoflikni ta’minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish: Ta’lim sohasida qaror qabul qilishda ochiqlikni ta’minlash va jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish Ta’lim sohasida xalqaro tajribani o’rganish va qo’llash, xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlash, inson kapitalini rivojlanadirish va jahon andozalariga mos ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan. Islohotlarning natijalari allaqachon ko’rinmoqda, ammo kelgusida ta’lim sifatini yanada oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va o’qituvchilarining malakasini oshirish kabi muhim vazifalar turibdi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni.
2. N.Muslimov, Z.Raximov, X.Qodirov “Ta’lim texnologiyalari” darslik. Toshkent-2017. 11-bet.
3. M.F. Hakimova, N.X. Xo’jayev, D.Q. Axmedov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo’llanma.– T.:TDIU nashr., 2006y, 52-53-betlar.
4. <https://xs.uz/uz/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevoriniyarata>.